2026-yil
6-son

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI

Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

MUNDARIJA

Jurayev B. O‘spirinlar huquqiy dunyoqarashini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarning o‘ziga xos xususiyatlari……..	**8**
Karimov X. Sportchilarni bo‘lajak musobaqalarga tayyorlashning psixologik asoslari.....	14
Maxmudova O. O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari asosidagi ijodiy rivojlanish yo‘nalishining mazmun-mohiyati……...	23
Parpiyva N.T. Matematika o‘qitish metodikasi fanida kombinatorika elementlarini o‘qitishning noan’anaviy usullari…….	34
Maxmudova M.A., Tilovov I.Q. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini raqamli ta’lim muhitida shakllantirish metodikasi …….	41
Авазов К.Х. Национальная безопасность в Центральной Азии: системный анализ современных проблем…….	49
Mamatova G.A. Badiiy matn ona tilini produktiv o‘qitish vositasi sifatida……...	61
Asamatdinova J. Qaraqalpaqstan Respublikasi qánigelestirilgen mekteplerinde filologiya pánlerin oqitiwda pedagogikalíq qádiryatlardi qáliplestiriw.....	67
Батыралиева Ш.П. Современные подходы к развитию духовно-нравственной деятельности студентов……	73
Norbosheva M., Abduyeva N. O‘smirlik davrida stress va uni boshqarish usullari…….	80
Ishankulova G.B. O‘zbek oilalarida gender munosabatlar namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari.....	87
Jabborova M. T. O‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatishda differensial va individual yondashuvlarning samaradorligi	93
Yunusova D. X. Xalq pedagogikasi an’analarining boshlang‘ich ta’limdagi tarbiyaviy imkoniyatlari ……..	100
Azimova N. N. Talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishda milliy madaniy qadriyatlarning pedagogik imkoniyatlari	109
Akramov D. I. Advancing global business management through digital innovations and cultural dynamics: prospects and challenges ……..	116
Nuriddinov B. B. Advancing global business management through digital innovations and cultural dynamics: prospects and challenges ……..	123
Mallayeva O. B. Bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarida professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari …….	130
Mamadaliyeva Z. R. Tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlarida biokimyo fanini dasturiy vositalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish …….	138
Axmedov S. Tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlarida noorganik kimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi …….	145

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

UDK: 378.016:351.74

BO‘LAJAK ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA PROFESSIONAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Mallayeva Ozoda Bahromovna,
O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi akademiyasi
“O'zbek tili va xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarida professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Professional kommunikativ kompetensiyaning mazmun-mohiyati, uning kasbiy faoliyat samaradorligini ta’minlashdagi ahamiyati hamda kursantlarda muloqot madaniyati, nutqiy savodxonlik, kasbiy etika va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik omillar yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarining professional kommunikativ kompetensiyasini samarali shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: professional kommunikativ kompetensiya, ichki ishlar organlari, kursant, kasbiy muloqot, pedagogik shart-sharoitlar, kommunikativ ko‘nikmalar, nutq madaniyati, interfaol metodlar, kasbiy kompetensiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические условия формирования профессиональной коммуникативной компетентности у будущих сотрудников органов внутренних дел. Рассматриваются сущность и значение профессиональной коммуникативной компетентности в обеспечении эффективности профессиональной деятельности, а также педагогические факторы, способствующие развитию культуры общения, речевой грамотности, профессиональной этики и коммуникативных навыков курсантов. Особое внимание уделяется использованию интерактивных методов обучения, проблемных ситуаций, профессионально ориентированных заданий и современных информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе. Результаты

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

исследования могут служить основой для разработки научно-практических рекомендаций по совершенствованию профессиональной коммуникативной компетентности будущих сотрудников органов внутренних дел.

Ключевые слова: профессиональная коммуникативная компетентность, органы внутренних дел, курсант, профессиональное общение, педагогические условия, коммуникативные навыки, культура речи, интерактивные методы, профессиональная компетентность.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE LAW ENFORCEMENT OFFICERS

Abstract. This article analyzes the pedagogical conditions for developing professional communicative competence in future law enforcement officers. The study examines the essence and significance of professional communicative competence in ensuring effective professional performance and highlights pedagogical factors that contribute to the development of communication culture, speech literacy, professional ethics, and communicative skills among cadets. The paper also emphasizes the importance of interactive teaching methods, problem-based learning situations, professionally oriented tasks, and modern information and communication technologies in the educational process. The findings provide a basis for developing scientific and practical recommendations aimed at improving the professional communicative competence of future law enforcement personnel.

Keywords: professional communicative competence, law enforcement officers, cadet, professional communication, pedagogical conditions, communicative skills, speech culture, interactive methods, professional competence.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini modernizatsiya qilish, aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda fuqarolar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da inson qadrini ulug‘lash, qonun ustuvorligini ta’minlash, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va xalq bilan muloqotini kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi ichki ishlar organlari xodimlarining nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalariga, balki ularning kommunikativ kompetentligiga ham bevosita bog‘liqdir.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida shaxsning intellektual, ma’naviy-axloqiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlash, zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash vazifasi belgilangan. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Ichki ishlar akademiyasida kursantlarning professional kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda xodimlarning xizmat intizomi, kasbiy etikasi, muomala madaniyati va aholi bilan samarali muloqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Zero, zamonaviy ichki ishlar organlari xodimi yuksak huquqiy bilimga ega bo‘lish bilan bir qatorda, fuqarolar bilan konstruktiv muloqot qila oladigan, nizoli vaziyatlarni kommunikativ vositalar orqali hal etishga qodir hamda kasbiy faoliyatda nutq madaniyatiga amal qiladigan mutaxassis bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar sharoitida ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, ularning jamiyat bilan samarali muloqotini ta’minlash hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bunday sharoitda ichki ishlar organlari uchun yuqori malakali, kasbiy jihatdan yetuk, muloqot madaniyatiga ega hamda turli kommunikativ vaziyatlarda samarali faoliyat yurita oladigan kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyati bevosita insonlar bilan muloqot qilish, turli ijtimoiy guruhlar vakillari bilan hamkorlik o‘rnatish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish, huquqiy tushuntirishlar berish va xizmat vazifalarini qonuniy hamda madaniyatli tarzda amalga oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli bo‘lajak xodimlarda professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirish oliy ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur kompetensiya nafaqat til va nutq ko‘nikmalarini, balki kasbiy etika, muloqot madaniyati, tinglash va fikrni aniq ifodalash, ziddiyatli vaziyatlarda konstruktiv munosabatlarni yo‘lga qo‘yish kabi muhim sifatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilayotgan ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi pedagogika fanining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimida professional kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish, ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari va vositalarini takomillashtirish zarurati mazkur muammoning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

Mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlari xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Biroq bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarida professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ayniqsa kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim muhitida uning samarali mexanizmlarini aniqlash masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Shu munosabat bilan mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarida professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qilish hamda ushbu jarayon samaradorligini ta’minlovchi omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda professional kommunikativ kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy komponentlari va uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarida professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga ta’sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlarning tizimli tavsiflanishi hamda ularni ta’lim jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilishi bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarida professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan nazariy hamda empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan hamda tizimli yondashuvlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, professional kommunikativ kompetensiya, kasbiy muloqot, kommunikativ tayyorgarlik va pedagogik shart-sharoitlarga oid ilmiy-pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Mavzu doirasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy o‘rganilib, professional kommunikativ kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlantirish mexanizmlari yuzasidan ilmiy xulosalar umumlashtirildi.

Tadqiqotning empirik qismida pedagogik kuzatish, suhbat, so‘rovnoma va tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy muloqotga tayyorgarlik darajasi, kommunikativ ko‘nikmalari hamda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligi o‘rganildi. Shuningdek, kursantlarning auditoriya va xizmat faoliyatiga yaqinlashtirilgan mashg‘ulotlar jarayonidagi kommunikativ faolligi ham kuzatildi.

Tadqiqotda professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirish samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatildi: ta’lim jarayonining kasbiy yo‘naltirilganligi, interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanish, kommunikativ vaziyatlar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish, mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda axborot-

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish. Ushbu shart-sharoitlarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi bo‘lajak xodimlarning kasbiy muloqot madaniyati, nutqiy kompetentligi va kommunikativ tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilishi nazariy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonining mazmuni va samaradorligini baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarida professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini kompleks o‘rganish va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida Ichki ishlar akademiyasi kursantlarining professional kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga ta’sir etuvchi pedagogik omillar o‘rganildi. Tadqiqotda 120 nafar kursant ishtirok etdi. Ularning kommunikativ kompetensiyasi motivatsion, kognitiv va amaliy-faoliyat komponentlari bo‘yicha baholandi.

Dastlabki diagnostika natijalari kursantlarning professional kommunikativ kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatdi.

1-jadval. Kursantlarning professional kommunikativ kompetensiyasi darajalari (dastlabki holat)

Daraja	**Kursantlar soni**	**Ulushi (%)**
Yuqori	18	15,0
O‘rta	52	43,3
Past	50	41,7
Jami	120	100

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 41,7 foizi professional kommunikativ kompetensiyaning past darajasiga ega ekanligi aniqlandi. Yuqori darajadagi ko‘rsatkich esa atigi 15 foizni tashkil etdi. Bu esa mazkur kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot jarayonida kasbiy yo‘naltirilgan muloqot vaziyatlari, interfaol metodlar, munozaralar, rolli o‘yinlar va keys-stadi texnologiyalari asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi. Tajriba yakunida qayta diagnostika o‘tkazildi.

2-jadval. Tajriba-sinov ishlari yakunida kommunikativ kompetensiya darajalarining o‘zgarishi

Daraja	Dastlabki (%)	Yakuniy (%)
Yuqori	15,0	35,8

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

O‘rta	43,3	50,8
Past	41,7	13,4

Jadvaldan ko‘rinadiki, tajriba yakunida yuqori darajadagi kursantlar ulushi 15 foizdan 35,8 foizga oshgan. Past darajadagi ko‘rsatkich esa 41,7 foizdan 13,4 foizgacha kamaygan. Bu esa qo‘llanilgan pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Professional kommunikativ kompetensiyaning alohida komponentlari bo‘yicha ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

3-jadval. Kompetensiya komponentlarining rivojlanish dinamikasi

Ko‘rsatkich	Dastlabki (%)	Yakuniy (%)	O‘sish (%)
Kasbiy muloqot madaniyati	58,2	78,6	+20,4
Nutqiy savodxonlik	61,5	81,3	+19,8
Tinglash va tahlil qilish ko‘nikmasi	55,7	77,4	+21,7
Konfliktologik muloqot ko‘nikmalari	52,4	75,8	+23,4
Jamoada kommunikatsiya olib borish	63,8	84,1	+20,3

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kasbiy yo‘naltirilgan kommunikativ vaziyatlardan foydalanish, interfaol metodlarni qo‘llash hamda ta’lim jarayonini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash kursantlarning professional kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, konfliktologik muloqot ko‘nikmalarida 23,4 foizlik o‘sish kuzatilgani ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuv, amaliy mashg‘ulotlar va interfaol pedagogik texnologiyalarning yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarida professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirish zamonaviy kasbiy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini tasdiqladi. Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyati fuqarolar, jamoatchilik vakillari hamda turli ijtimoiy guruhlar bilan doimiy muloqotda amalga oshirilishi sababli ularda yuqori darajadagi kommunikativ tayyorgarlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida professional kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning asosiy pedagogik shart-sharoitlari sifatida ta’lim jarayonining kasbiy yo‘naltirilganligi, interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish, kommunikativ vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlarni tashkil etish, mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda axborot-kommunikatsiya

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash muhim omillar ekanligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari kursantlarning professional kommunikativ kompetensiyasi ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuz berganligini ko‘rsatdi. Xususan, kasbiy muloqot madaniyati, nutqiy savodxonlik, tinglash va tahlil qilish ko‘nikmalari, konfliktologik muloqot hamda jamoada samarali kommunikatsiya olib borish kompetensiyalarining rivojlanish darajasi oshgani kuzatildi. Bu esa qo‘llanilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, munozara, debat, rolli o‘yin va keys-stadi texnologiyalaridan tizimli foydalanish zarurligini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuvlar kursantlarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish va xizmat faoliyatida yuzaga keladigan murakkab kommunikativ vaziyatlarni samarali hal etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot yakunlariga ko‘ra, bo‘lajak ichki ishlar organlari xodimlarida professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni ta’lim jarayoniga izchil tatbiq etish kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga hamda kelgusidagi xizmat faoliyati samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishga oid farmon va qarorlari to‘plami. – Toshkent: Adolat, 2023.
4. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 120 b.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.
7. Zimnyaya I.A. Klyuchevыe kompetensii kak rezultativno-tselevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. – Moskva: Issledovatelskiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004. – 42 s.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

8. Xutorskoy A.V. Kompetentnostniy podxod v obuchenii. Nauchno-metodicheskoe posobie. – Moskva: Eydos, 2013. – 73 s.
9. Leontyev A.A. Psixologiya obshcheniya. – Moskva: Smysl, 2008. – 368 s.
10. Zeer E.F. Kompetentnostniy podxod k modernizatsii professionalnogo obrazovaniya // Obrazovanie i nauka. – 2005. – №4. – S. 23–31.
11. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – P. 269–293.
12. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1(1). – P. 1–47.
13. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 47 p.
14. Johnson D.W., Johnson R.T. Joining Together: Group Theory and Group Skills. – Boston: Allyn & Bacon, 2017. – 384 p.
15. Shonazarov Sh.A. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari // Pedagogik mahorat. – 2022. – №4. – B. 45–49.
16. Mavlonov A., Rahmonqulov H. Kasbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. – 156 b.
17. Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 108 p.
18. Spitzberg B.H., Cupach W.R. Interpersonal Communication Competence. – Beverly Hills: Sage Publications, 2012. – 315 p.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:
Muqimov Alisher

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari